

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тилипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Сардорбек Усмонхуджаевич
доктор философии по социологическим наукам, доцент
(Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: @devdasdesign

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Alikariyev Nuriddin OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI MEHNAT SAMARADORLIGINING TAHLILI.....	4
2. Parmanov Farxod, Xudayarov Ixomjon SOTSIAL MOBILLIK PARADIGMASINING ETNOMADANIY INTEGRATSIYALASHUV TENDENSIYALARI.....	12
3. Турсунов Диёр, Сеитов Азамат ВЛИЯНИЕ ИНТЕРНЕТ-СМИ НА ПОЛИТИЧЕСКУЮ СОЦИАЛИЗАЦИЮ (НА ПРИМЕРЕ ПРОТЕСТОВ В РОССИИ 2017-2018 ГОДА).....	19
4. Sog'inov Nurmat AMALIYOTCHI PSIXOLOG MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI.....	29
5. Zaitov Elyor MAHALLANING O'RGANILISHIDA TARIXIY YONDASHUV.....	38
6. Алексеева Виктория СОЦИАЛЬНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ ЖЕНЩИН В УСЛОВИЯХ ФОРМИРУЮЩЕГОСЯ ГЕНДЕРНОГО ПОРЯДКА ДОСТИЖЕНИЯ РАВЕНСТВА.....	49
7. Kayumov Kaxramon DEVIANT HULQ-ATVOR PROFILAKTIKASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	57
8. Abdullaev Akmal Gadaymurodovich SIVILIZATSION YONDASHUV SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING METODOLOGIK BAZASI SIFATIDA.....	63
9. Mahammadjanov G'olibjon GLOBALLASHUV DAVRIDA JAMIYATDA IJTIMOIIY ONG TIZIMIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARI (Sinergetik yondashuv).....	71
10. Qozoqov Sobirjon O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIIY OMILLARI.....	76
11. Нуруллаева Джамиля СПОРТ КАК СОЦИАЛЬНОЕ ЯВЛЕНИЕ.....	83
12. Mahammadjanov G'olibjon JAMIYATDA IJTIMOIIY ONG TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR: SOTSIOLOGIK YONDASHUV VA TAHLIL.....	90


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Sog'inov Nurmat,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
soginovnurmat@gmail.com

AMALIYOTCHI PSIXOLOG MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNINI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.11052527>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada amaliyotchi psixologlarni tayyorlashda psixologiya va psixologiya sohalari, ta'limotlari haqidagi ma'lumotlarni berishda milliy qadriyatlarimizga, sharq mutafakkirlari ishlariga murojaat qilish, ulardan o'rinli foydalanish imkoniyatlari haqida gap boradi. Respublikamizning turli oliy ta'lim muassasalarida amaliyotchi psixolog sohasida oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlarni tayyorlashda milliy qadriyatlarimiz bo'lmish xalq og'zaki ijodiyoti na'munalari, o'tmish allomalarimiz Al-Xorazmiy, Az-Zamaxshariy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Al-Farg'oniy, Abu Nosir Forobiy, Nizomulmuluk, Xusayin Voiz Koshifiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur kabilarning psixologik qarashlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari va ularning samaradorligi haqida muallif takliflari, muayyan misol va namunalar asosida bayon etilgan. Milliy qadriyatlarimizga xurmat tuyg'usining shakllanishiga halaqit qilishi ehtimol bo'lgan ayrim fikrlar ustida to'htalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: psixologiya, psixodiagnostika, kasb tanlash, kadrlarni joy-joyiga qo'yish, proforientatsiya, milliy qadriyatlar, milliy g'urur, shaxsni shakllantirish.

Согинов Нурмат,

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана
кандидат психологических наук, доцент
soginovnurmat@gmail.com

МЕСТО НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ ПРАКТИЧЕСКОЙ ПСИХОЛОГИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь идет месте и роли национальных (традиционных) ценностей при подготовке практических психологов. Рассматриваются вопросы повышения эффективности подготовки специалистов с высшим образованием по направлению практическая психология в высших учебных заведениях Республики Узбекистан. Излагаются размышления на данную тему мыслителей Востока, приводятся сведения о таких выдающихся деятелях, как Ал-

Хорезми, аз-Замахшари, Абу Райхон Беруни, Ахмад ал-Фаргоний, Абу Насир Форобий, Низамулмулк, Хусаин Воиз Кошифи, Амир Темур, Алишер Навои, Захириддин Мухаммад Бобур. На основе конкретных примеров указываются некоторые факторы, которые могут неблагоприятно влиять на формирование мировоззрения подрастающего поколения, молодежи страны.

Ключевые слова: психология, психодиагностика, профориентация, профотбор, распределение кадров, утечка кадров, традиционные и национальные ценности, формирование личности.

Soginov Nurmat,
University of Journalism and Mass Media
Communications of Uzbekistan,
Candidate of psychological
sciences, Associate professor
soginovnurmat@gmail.com

THE PLACE OF NATIONAL VALUES IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF THE TRAINING OF PRACTICAL PSYCHOLOGISTS

ABSTRACT

This article discusses the place and role of national (traditional) values in the training of practical psychologists. The issues of increasing the efficiency of training specialists with higher education in the direction of practical psychology in higher educational institutions of the Republic of Uzbekistan are considered. The reflections on this topic of Eastern thinkers are presented, information is provided about such outstanding figures as Al-Khorezmi, az-Zamakhshari, Abu Raykhon Beruni, Ahmad al-Fargony, Abu Nasir Forobiy, Nizamulmulk, Husain Voiz Koshifi, Amir Temur, Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Bobur. Based on specific examples, some factors are indicated that may adversely influence the formation of the worldview of the younger generation and the country's youth.

Key words: psychology, psychodiagnostics, career guidance, vocational selection, personnel distribution, personnel drain, traditional and national values, personality formation.

“Olimlar orasida darslik yozishga pastroq bir ilmiy ish sifatida qarash illati bor. Nega bunday? Bu psixologiya qaerdan paydo bo‘lgan? Axir, darsliklarda millat fikrining, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg‘or namunalari aks etishi kerak emasmi?” [1].

KIRISH

Atoqli psixolog olim German Ebbingauz, “Psixologiya uzoq o‘tmishga va qisqa tarixga ega”-deganidek, psixologiya tarixiga oid adabiyotlarda, psixologiyaning eksperimental fan sifatida yuzaga kelishi, 1879-yil Leypsig shahrida, nemis faylasuf va psixolog olimi Vilgelm Vund (1832-1929) tomonidan dunyoda birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasi ochilgan sana bilan bog‘liqligi qayd etiladi [2]. Darhaqiqat, 4-5 ming yillik tarixga ega boshqa fanlar qatorida bu muddat juda qisqa. Lekin, psixologiya ta’limotlarining yuzaga kelishi va rivojlanishi uzoq o‘tmishga ega. Balkim, ilk odam, Homo sapiensning xayoliga kelgan birinchi savol, “**men kimman?**”, “**u kim?**” degan savol bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas. Insonning o‘zini-o‘zi va atrofida qilarni bilishi (psixologiya), shu savollarga javob topishdan boshlanadi. Ta’kidlab o‘tish joizki, dunyoviy va diniy ilmlarning barchasi inson manfaatlariga xizmat qiladi. Masalaga shu nuqtai nazardan qaralsa, ularda albatta psixologiya ta’limotlariga oid ko‘plab ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin. Odamshunoslik fanlari: antropologiya, arxeologiya, tabiatshunoslik, madaniyatshunoslik, tibbiyot, huquqshunoslik, dinshunoslik, san’atshunoslik, biologiya, sotsiologiya, tarix, adabiyot va shu kabilarning barchasida insonga, uni bilishga oid ma’lumotlar mujassam. Bularning integratsiyasidan psixologiyaga oid ilmiy ma’lumotlarni farqlab olib, ularni psixologiya adabiyotlarida, psixologiya fani bo‘yicha yaratiladigan

darsliklar, o'quv qo'llanmalarida qayd etib, asoslab berish esa, respublikamizda amaliyotchi psixologlar tayyorlash samaradorligini oshirilishiga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda malakali mutaxassislarni tayyorlash, ayniqsa oliy ma'lumotli, ziyoli mutaxassislarni tayyorlashga mo'ljallangan biron-bir ta'lim muassasasi yo'qki unda psixologiya fanlarining u yoki bu sohasi bo'yicha mashg'ulotlar o'tilishi ko'zda tutilgan bo'lmasa. Mutaxassisning, ziyolining hozirgi zamon psixologiyasi ilmiy ta'limotlaridan, uning yutuqlaridan boxabarlik masalasi, uning psixologik savodxonlik, psixologik nazokati masalasi, bu masalalarning dolzarbligi ertaga, bugun va kechagiga qaraganda ortsa ortadiki, lekin hech qachon kamaymaydi. Agar bo'lajak kadr, rahbarlik lavozimiga tayyorlanayotgan bo'lsa (magistr bo'lsa), uning psixologik savodxonligi masalasi yanada dolzarblashib boraveradi.

METODOLOGIYA

Respublikamiz ta'lim dargohlarida, ayniqsa, magistratura bo'limlari o'quv rejalariga "Psixologiya", "Umumiy psixologiya", "Ijtimoiy psixologiya", "Psixodiagnostika", "Oila psixologiyasi", "Boshqaruv psixologiyasi" kabi psixologiyaning turli amaliy sohalari bo'yicha mashg'ulotlarning o'tilishi ko'zda tutilgan. Bu keltirib o'tilgan fanlar bo'yicha o'quv dasturlari, o'quv-mavzu rejalar ishlab chiqilgan, ular bo'yicha mashg'ulotlarni o'tish uchun o'qituvchilar tanlab olingan. Aksariyat hollarda bu mashg'ulotlar yuqori saviyalarda o'tilmoqda va o'quvchi, talabalar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olinmoqda. Lekin shuni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerakki, psixologiya fanlari bo'yicha dars o'tadigan o'qituvchilar, fanni mustaqil o'zlashtirmoqchi bo'lgan o'quvchilar, psixologiya fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tishda davlat tilida kerakli darsliklar, o'quv qo'llanmalari, fanga oid maxsus adabiyotlarning kamligi, bu boradagi taqchiliklar kuzatilishini ta'kidlab qoladilar. Respublikamiz xalq ho'jaligining u yoki bu sohasiga malakali mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan ta'lim muassasalarida, bo'lajak kadrlarning psixologik savodxonligini oshirish, ularning psixologik tayyorgarligini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin bo'lgan, ayniqsa davlat tilidagi psixologiya bo'yicha maxsus adabiyotlarga bo'lgan taqchilik mavjudligini qayd etish, avvalo biz olimlar uchun, mustaqilligimizning ikkinchi choragiga o'tganimizda ancha ayanchli holdir. Bu endi bizning kamchiligimiz, bizning aybimiz. Afsuski bunga iqrar bo'lmay ilojimiz yo'q.

Bunday taqchilikni qisman bo'lsada bartaraf etish maqsadida, Respublikamiz psixolog olimlari, psixologiya fani o'qituvchilari tomonidan imkon qadar darsliklar, qo'llanmalar tayyorlanib o'quvchilar e'tiboriga xavola etilib kelinmoqda. Ulardan foydalangan holda bo'lajak kadrlar hozirgi zamon psixologiyasi yutuqlari, ulardan kundalik hayotida, xizmat faoliyatida foydalanish imkoniyatlari bilan tanishib bormoqdalar. Biroq, aynan shu masalada jiddiy muammolarimiz mavjud. Ya'ni, yuqorida aytilganidek, o'quv adabiyotlarining aksariyati davlat tilida emas. Davlat tilida chop etilganlari ham kamchiliklardan holi emas. Masalan, ba'zi bir "pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik" yoki "nopedagogik, nopsixologik sohalarda mutaxassislar tayyorlovchi yo'nalishlar uchun psixologiyadan qo'llanma" kabi nomlar bilan, respublikamizning etakchi psixolog olimlari muallifligi yoki tahriri ostida chop ettirilayotgan darsliklar va qo'llanmalarda psixologiya fani tushunchalari, ta'limotlari haqida ma'lumotlar berilar ekan, ularda xali xanuz sobiq ittifoq davri siyosiy tamoyillari, andozalari saqlanib qolganligining guvohi bo'lamiz. Ularda aksariyat ta'limotlar va ayniqsa ularning asoschilari bundan 60-70 yillar muqaddam qanday bergan bo'lsa shundayligicha qolavergan. Farqi faqat davlat tilida yoki lotin imlosida xolos. Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "Eski qolipda, mustabid davrda yozilgan darsliklardan foydalanib, eski mafku-radan xolos bo'lmasdan bolalarimizni yangicha fikrlashga o'rgatolmaymiz" [3]. "Fan davlatga, xalqqa, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozimligini unutishga aslo haqqimiz yo'q" [4]. "Kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas!" [5].

ASOSIY QISM

Darsliklar, ayniqsa psixologiya fanlariga oid adabiyotlar ham avvalo mustaqilligimiz ideologiyasiga xalqimizga, davlatimizga xizmat qilish kerak. Ular yordamida yosh avlodga ta'lim berilar ekan, aynan u yoki bu psixologik ta'limot, psixologik qarashlarda bizning ajdodlarimiz, yurtdoshlarimiz, mutafakkirlarimizning o'rni, ular bu borada, shu fan taraqqiyotiga qanday ulush

qo'shganligi, ularning ishlari haqida ma'lumotlar berib o'tilsa, yoshlarimizda o'tmish mutafakkirlarimiz ishlaridan boxabar bo'lish, milliy qadriyatlarimizni anglash va ular bilan faxrlanish tuyg'usi shakllanadi. Bu esa ularning nafaqat shu fan yutuqlarini yaxshiroq o'zlashtirishi, balki shu fan taraqqiyotiga ajdodlarimiz qo'shgan hissani bilish, anglash u bilan faxrlanish xissini shakllantiradi.

Shuning uchun ham, mamlakatimiz ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan talabalar uchun psixologiya fanlaridan darsliklar yozishda avvalo shu fan taraqqiyotiga yurtdoshlarimiz, o'tmish mutafakkirlarimiz qo'shgan hissalarini haqida kengroq va batafsil ma'lumot berib o'tish kerak. Buning uchun esa asoslar etarli. Eng muhimi mualliflarimiz ham g'arb psixolog olimlari ishlaridan, ham sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlaridan boxabar bo'lsalar, qaerda, qaysi mavzuda ajdodlarimiz ta'limotlarini yoritib o'tish lozimligini yaxshi biladilar. Aks holda so'ngi yarim asr davomida (albatta o'sha davrning o'ziga xos g'oyaviy talablari ta'siri ostida) yaratilgan darsliklar, qo'llanmalar bilangina kifoyalanib, ularda bildirilgan ma'lumotlar, ilgari surilgan mulohazalar bilangina cheklanib qolinadi.

“Sharq falsafasi avval boshidan boshlaboq asosan inson ruhiyatini, uning ma'naviy olamini bilishga, odamlarning o'zaro munosabatlarini anglashga e'tibor bergan” [6, 7]. Bu o'rinda u yoki bu muallifning u yoki bu qo'llanmasi haqida to'xtalib o'tmoqchi emasmiz. Lekin psixologiya bo'yicha yaratilgan aksariyat darsliklarda shu fan dasturi doirasida berilishi lozim bo'lgan psixik jarayonlar, psixik holatlar, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, shaxslararo munosabatlar haqida yoki psixologiya fanlarining u yoki bu sohasi bo'yicha ma'lumotlar berilayotganda asosan g'arb olimlari (Rossiya, Germaniya, Angliya, Fransiya, Amerika va boshq.) ilgari surgan ta'limotlar haqida, u yoki bu ta'limotning yaratilishiga ular “asos solganligi” kabilar haqida yoziladi. Ba'zan bunday qo'llanmalarni o'qisangiz, go'yo “psixologiya” fani, “psixologik” ta'limotlar asosan evropada bo'lganu, sharqda bunday fan bo'lmagandek taassurot yuzaga keladi (Aks holda sharq olimlari ishlari haqida ham yozilardi-da). Mabodo, sharq mutafakkirlari ishlari haqida yozilgan bo'lsa ham, unda asosan ularning ismi shariflarini va ular ham shu borada ijod qilganligigina qayd etilib, asosiy izohlar g'arb mualliflari fikrlari orqali beriladi.

Rossiyalik mualliflar darsliklarda iroda haqida tushuncha berib o'tar ekanlar, iroda mehnat jarayonida yuzaga kelishligini ta'kidlab, bu o'rinda rus tilidagi “trud” va “trudnost” so'zlarining bir ildizga ega ekanligi ham tasoddiy emas ekanligiga urg'u beradilar [8]. Darhaqiqat iroda uzluksiz mehnatda shakllanadi. Shu haqda ma'lumotlar berilar ekan, bizning darsliklarimizda, o'tmish mutafakkirlarimiz (Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy va boshq.) ishlariga murojaat qilinsa ayni muddao bo'ladi. Darhaqiqat, klassik o'zbek adabiyotida, “Ranj” so'zi ko'p ishlatiladi. Ranj so'ziga – mehnat, mashaqqat deb izoh beriladi. (“Haq yo'linda kim senga bir harf o'qutmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila”. Mazmuni. Kimki mashaqqat chekib, Haq yo'lida senga bir harf o'rgatgan bo'lsa, yuz xazina berib ham uning haqqini ado etib bo'lmaydi. Bunda, ranj - mehnat, mashaqqat, qiyinchilik, to'siq degan kabi ma'nolarda ishlatiladi, ya'ni, ularda iroda alomatlarini kuzatiladi.

Tafakkur mavzusini o'tishda hazrat Navoiy aytgan: “Dedi: har ishki qilmish odamizod, Tafakkur birla bilmish odamizod” degan kabi fikrlaridan foydalanish mumkinku. Yoki aynan shu asarda berilgan:

“Kimni tilasang bilay, maqolin angla,
Aslin, desang, anglayin, fi'lin angla,
Kirdorig'a boqib, asl holin angla,
Aslig'a dalil aning xisolin angla”.

Mazmuni: Birovning kimligini bilay desang, so'ziga boq, asliga qiziqsang, yurish-turishini kuzat. Xatti-harakatini ko'rib, uning aslida kimligini bilish mumkin, chunki kishining fe'l-atvori uning qanday inson ekanligiga yorqin dalil [9] degan kabi fikrlaridan shaxs mavzusini o'qitishda, “Boshqaruv psixologiya”sida esa:

“Adl aylaki, ul xalq hayoti bo'lmish,
Xush ul kishikim, adl sifati bo'lmish,
Ham mulk bila adl jihati bo'lmish,

Ham adl bila mulk saboti bo‘lmish”.

Mazmuni: Adolat aylaki, xalq hayoti shu asosga qurilgan. Yaxshi kishi adolatni kasb qilib oladi. Hukmronlik adolat bilan mustahkam bo‘ladi, binobarin, hukmronlik va adolatni birga olib borgan ma’qul [10], degan fikrlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Shaxsning ijtimoiylashuvi omillarini tushuntirishda, buyuk bobokolonimiz Abu Rayxon Beruniyning: “Jon osmondan bir holat va kayfiyatda tushadigan yomg‘ir suviga o‘xshaydi. Asl moddasi turlicha bo‘lib, yomg‘irga qo‘yilgan tilla, kumush, shisha, chinni, sopol va sho‘r tuproqdan yasalgan idishlarga yomg‘ir suvi yig‘ilsa, suvning ko‘rinishi, mazasi va hidi o‘zgaradi” [11] degan fikrini keltirib o‘tish o‘rinli.

Yozilganiga 2700 yildan oshgan “Avesto”da, o‘sha davrlarda, **psixodiagnostika** amallari qanday bajarilganligiga misollar mavjud. Unda, hozirgi Movarounnahr va Xuroson xalqlari yashagan mintaqalarda istiqomat qilgan barcha qavm va qabila ahllari orasida “lagomzadan” (otga suvliq sola bilishi orqali sinash), “zin zadan” (otni egarlay bilishiga qarab sinash), “kamarbastan” (yigitlarning ota kasbidan tashqari, chavandozlik, kurash tutish malakalarini aniqlash. Bu sinovdan o‘tganlarga cho‘pon cho‘lig‘ini olib, ot surib, tuya minib yurish huquqi berilgan) kabi sinash usullari mavjud bo‘lganligi bayon etiladi. Ularda asosan, yoshlarni kundalik hayotga, oilaga, u yoki bu kasbni bajarishga tayyorlik darajalari aniqlangan. Yigitlar mollarni boqish, tuya, otlarni parvarishlab ularni boshqarish, uzoq yaylovlarga suruv haydash, chorvani darranda hayvonlar, qaroqchilardan muhofaza qilish, o‘ttiz ikki harbiy hunarni bilishlari majburiy bo‘lgan. Ana shu malakalar hosil bo‘lgach, o‘g‘il bolalar 17 yoshida “lagomzadan” va “zin zadan” imtihonidan o‘tgan. Natijada ular balog‘at yoshiga etgan, ro‘zg‘or yuritishni o‘rganib, “kad xudo” (yigitlarning uy xo‘jasi, oila boshlig‘i roliga tayyorlik darajasini aniqlash) bo‘lish, cho‘pon cho‘lig‘ini olib, ot surib, tuya minib yurish huquqini qo‘lga kiritgan. Alohida iqtidorli yigitlar esa, chavandozlikka maxsus tayyorlangan, harbiy mashqlarda ishtirok etgan. Yigitlarning eng saralari harbiy sohalarga jalb qilingan [12].

Buyuk o‘tmishdoshlarimizdan biri, Nizomulmulk, “Siyosatnoma, yoki siyar ul-muluk” nomli asarida, Samoniylar davrida yuqori lavozimlargakadrlarni tanlab olish, tayyorlash, joy-joyiga qo‘yish va ularni 7 yil davomida yilma-yil kuzatib borish qanday amalga oshirilganligini yozadi [13] Bu tadbirlar, bugungi kunlarimizda psixologik amaliyotda odat tusiga kirgan **“psixologik kuzatib borish”** talablariga to‘g‘ri keladi.

Nizomulmulk, Sulton Mahmud G‘aznaviyga maslahat berar ekan: “Aristotilis shoh Iskandarga: - Shu mamlakatda hurmati, obro‘si bor kishilarni xafa qilsang, yoki mansabidan olsang, ularga darrov boshqa amal bergil, bo‘lmasa, ular dushmanlar bilan birlashib, seni yo‘q qilish yo‘liga kirishlari mumkin, deydi” [14]. Davlatni, mamlakatni boshqarishda bunday yo‘l tutilishi, etnopsixologik, ijtimoiy-psixologik, boshqaruv psixologiyasi, amaliy psixologiya kategoriyalarining inobatga olinishi evaziga, o‘sha davrlarda yurt gullab yashnagan, mamlakat ravnaq topgan. Sharqning ilk uyg‘onish davri ro‘y bergan.

Bunga o‘xshash tadbirlar, Sharqning mashhur allomalaridan yana biri Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai Sultoniy: yoxud javonmardlik tariqati” nomli risolasida ham bayon etilgan. Koshifiy futuvvat ilmi (javnardlik) haqida yozar ekan “bu ilmning o‘z mavzui bor, bu mavzu – **inson ruhi** hisoblanadi. Zero, **insonning ruhini tarbiyalash, parvarish etish orqali uni go‘zal va hamida xulq – atvorli, fazilatli qilib etishtirish mumkin**”, deb ta’kidlaydi. Alloma “Futuvvat nima?” degan savolni o‘rtaga tashlab, unga “Futuvvat eldan yashirin biron ish qilmaslik, hamma odamlar bilan xushfe‘llikda yashash, sahovatlilik, qalbni kibru havo, gina-kudrat, hasad-g‘azabdan pokiza, pok tutish, vafodorlik, hamma vaqt xalq xizmatida bo‘lishdir” [15], deb javob beradi. Uning asarlarida bayon etilgan ta’limotlar, “fasllar”, XX asrda berilgan, D.Karnegi ishlaridagi “qonun”lar bilan bemalol baslashishi mumkin.

So‘nggi yillarda psixologiya bo‘yicha nashr etilgan o‘quv qo‘llanma, darsliklarda milliy qadriyatlarimiz, mentalitetimizga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar to‘laligicha yoritilayapti deb aytish qiyin. Chop etilgan ishlarning saviyasi, yoshlarimizda asrlar, ming yilliklar davomida mustahkamlanib qolgan vatanparvarlik hissini tarbiyalashga etarlicha xizmat qila olmaydi. Mamlakatimizdan tashqarida chop etilayotgan va aksariyat yoshlarimiz o‘qiydigan manbalarning ayrimlarida mafkuramizga zid ma’lumotlarni ham uchratish mumkin.

Masalan, shunday manbalarning birida, buyuk bobokalonimiz Amir Temur shaxsi haqida quyidagi ma'lumotlar beriladi: “Темур (Темерлан) (1336-1405) завоеватель Центральной Азии. ...разорил множество поселений на юге Руси, но не пошел дальше. В истории имя Темура стало синонимом жестокого завоевателя. В Афганистане построил башню из 2000 пленников, в Индии казнил 100000 пленников...” [16, – В.963-964]. Yoki yoshlarimiz ko'proq murojaat qiladigan internet materiallarida: “Beruniy arab olimi”, “Ibn Sino fors shoiri”, “Bobur mo'g'ul sarkardasi” kabi, jamiyatimiz mafkurasiga xizmat qilmaydigan ma'lumotlar berilgan. Shunday ekan, avvalo ijtimoiy-gumanitar fanlarni, jumladan psixologiya fanlarini o'qitishda bu kabi “g'oya”larga bas kela oladigan, ularning hammasi ham yoshlarimizda munosib mafkuraning shakllanishiga xizmat qilavermas ekanligini isbotlaydigan ma'lumotlar berilishi kerak.

Hozirgi zamon psixologiyasida keng ko'lamda qo'llanilayotgan ilmiy ma'lumotlarni Sohibqiron Amir Temur ishlarida ham uchratish mumkin. Masalan, Amir Temur o'z tuzuklarida: “Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega kishilardan bo'lishlari lozim: birinchisi – asllik, toza nasllilik; ikkinchisi – aql-farosatlilik; uchinchisi – sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalik; to'rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik” [17, – B.106-107]. Bu fikrlar kasb psixodiagnostikasi, kasb tanlash, kasbga yo'llash, kadrlarni joy-joyiga qo'yish ishlari samaradorligini oshirishda amaliyotchi psixologlarimiz uchun andoza bo'lishi mumkin. Yoki, “Har erning tabiati, har er va shaharning rasmi odatlari, mizojidan voqif bo'lib turdim. Har bir o'lka va shahar ahlining ashrof-ulug'lari bilan do'st tutindim. Mizojlariga, tabiatiga to'g'ri kelgan, o'zlari tanlagan odamlarni ularga hokim qilib tayinladim. Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo'lib turdim...”. Bu fikrlar ijtimoiy-psixologiya, boshqaruv psixologiyasi bo'yicha darsliklardan o'rin olishga to'la haqli. Amir Temur, turli millatlarga mansub qo'shin va aholini boshqarishda ularning **etnopsixologik** xususiyatlarini inobatga olgan holda boshqaruvni tashkil qilgan. “...turku, tojik, arabu ajamning turli toifa va qabilalaridan bo'lgan va menga nisbatan xayrixohlik qilgan kishilarning ulug'lariga hurmat ko'rsatdim, qolganlarini ham o'z holiga yarasha siyladim” [18, – B.77]. Bu ma'lumotlar, Amir Temur o'z faoliyatida hozirgi zamonda psixologiyasi, ijtimoiy-psixologiya, boshqaruv psixologiyasi, etnopsixologiya va boshqa psixologiyaning amaliy sohalarida o'qitiladigan ta'limotlardan qanday oqilona foydalanganligini ko'rsatadi. Bunday ma'lumotlarni Abu Nosr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ajdodlarimiz ishlarida ham uchratamiz.

Tilda antonim, sinonim, omonim so'zlar degan tushunchalar ham mavjud. Bularning nima ekanligini hamma biladi. Lekin, o'zbek tilida **iyhom** [19] degan tushuncha ham bor. Ko'pchilik bundan bexabar bo'lishi mumkin. Iyhom – so'z san'ati, u so'z tagidagi so'z. So'zning hamma ham birdek tushunavermaydigan, tegishli ijtimoiy guruh, hudud, toifa odamlar o'zicha idrok etadigan jihati, boshqacha mazmuni, so'z o'yini hisoblanadi. Muloqot psixologiyasida ular: “Idiomatik so'zlar” deyiladi. Masalan, vodiy viloyatlari, Andijon, Asaka, Namangan, Marg'ilon, Qo'qonda askiya san'ati keng tarqalgan, biron bir xalq sayli, bayramlari bo'lmaydiki, ular askiyasiz o'tsa. Ularda xaloyiq ishtirok etib, kulishib, maza qilib dam oladilar. Lekin, bunday askiyavozlikni, xursandchilikni ko'rgan boshqa viloyat fuqarolari, ularning tushunmasligi mumkin. Aksincha, askiyachilarni ustidan kinoyali kulib, “o'zi gapirib - o'zi kuladigan”lar, deb qo'ya qoladi. Ularni tushunish uchun o'sha erda tug'ilish, ular bilan yashash kerak. Xolbuki askiya, dunyoning boshqa burchaklarida uchratilmaydigan, asosan vodiy viloyatlarida rivojlangan, hammaning ham qo'ldan kelavermaydigan, o'ta murakkab san'at, so'z o'yinidir.

Shu o'rinda, bir ma'lumotni keltirib o'tish joiz. Atoqli sovet psixologi, psixologiya fanlari doktori, professor, psixologingvist, A.R.Luriya, o'tgan asrning 40-yillarida Farg'ona vodiysida, asosan Marg'ilon va Qo'qon shaharlarida etnopsixologik ekspeditsiyada ishtirok etib, o'zi o'tkazgan etnopsixologik tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda (balkim u davr siyosati talabiga monand ravishda) o'zbeklarda (marg'ilonliklar va qo'qonliklar misolida) yumor hissi yo'q, intellektual daraja past degan xulosaga kelgan. Aytmoqchimizki, bu bilan biron bir sobiq sovet yoki ingliz, amerikalik, nemis, fransuz mutaxassisi bizning hududlar fuqarolari haqida biron-bir fikrni bildirgan bo'lsa, ularni qonun o'rnida qabul qilish emas, balki ularni yaxshilab o'rganish, tahlil qilish, ularga ijodiy yondashish, tabir joiz bo'lsa, o'z mafkuramiz chig'irig'idan o'tkazib so'ng tegishli xulosaga kelish

lozim. Atoqli adibimiz Toxir Malik yozganlaridek: “Bir millat tarixini o‘rganib, baho berayotgan boshqa millat vakilining bayon etilgan fikrida o‘z millati manfaati yotadi. Ana shu manfaat xolislik yo‘lini to‘sadi” [20, – B.324].

Psixologiya fanlari doktori, professor Ye.N.Reznikov o‘zining “Теоретические и методологические проблемы этнической психологии” nomli monografiyasida, atoqli qirg‘iz adibi, Chingiz Aytmatovning “Har bir millat nafaqat to‘q, balki mangu bo‘lishni ham xohlaydi” [21], degan fikrini iqtibos keltiradi. “Har bir millatning mangu bo‘lishni xohlashi” bevosita uning ruhiyati, aniqrog‘i ong osti (ongsizlik) mexanizmlariga bog‘liq. Atoqli psixolog olim Karl Gustav Yung psixoanaliz ta‘limotining kalit tushunchalaridan biri, “libido”ni talqin qilgan ekan, uni inson qalbidagi jarayonlar faolligini belgilaydigan ruhiy quvvat, ong osti kuchi, deb ko‘rsatadi [22, – B.56]. U bunda “arxetip” tushunchasidan foydalanadi. ““Arxetip” shunday simvolik-timsoliy formulaki, anglanmagan holatda ishga tushadi va hech qachon anglanmaydi”. Inson o‘z hayoti va faoliyati davomida ana shu timsollarga tayanadi. Yung ko‘zda tutgan “arxetip”lar inson ruhiyatining eng tubida yotgan ruhiy kechinmalardir, ular nafaqat alohida individning, balki butun insoniyatning ko‘p ming yillar davomidagi hayotga moslashuvi va yashash uchun kurashi natijasida shakllangan. Bunday arxaik timsollar qadimiy ruhiy holatlar mazmunini saqlab qoladi. Yung, ular nafaqat insonga, balki butun tirik mavjudotga tegishli ekanini ta‘kidlaydi.

“Yashirishga hojat yo‘q, biz shubhali shiorlarga berilib, ma‘naviy madaniyatimizni oziqlantirib turgan ildizlarni qirqib tashlashga (“eskilik sarqitlari” deb... (ta‘kid muallifniki)) o‘nlab yillarni sarfladik. Hozir buning oqibatlarini sezib turibmiz. Madaniyat manbalariga qaytish g‘oyat qiyin kechmoqda, odamlarning bu jarayonga munosabati o‘tkir bo‘lmoqda” [23, – B.90]. Hatto, ayrim chet el adabiyotlarida hali-hanuz, ajdodlarimizning biz uchun milliy qadriyat hisoblanmish ishlariga noxolis baho berish hollari kuzatilmoqda. Bunday holatlarda, “Xalq bilan bevosita va oshkora muloqot qilish lozim bo‘lib qolgan o‘tkir majoroli vaziyatlarda vatanparvar olimning so‘zi salmoqli bo‘lishi kerak” [24, – B.94]. Respublikamizning turli ta‘lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan psixolog mutaxassislar, psixolog olimlar, o‘zlari yaratgan darsliklarda, qo‘llanmalarda, ilmiy maqolalarida, ta‘lim muassasalarida o‘qitiladigan boshqa fanlar yutuqlari, ilmiy ma‘lumotlaridan samarali foydalanib, psixologiya fanlari ta‘limotlarini yanada rivojlantirish borasida o‘zlarining salmoqli so‘zlarini aytishlari zarur. Bu masalalarni biz o‘zimiz hal etmasak, chetdan kelib hech kim bajarib bermaydi.

“To‘qqizinchi – o‘n beshinchi asrlarda ma‘rifatli dunyo buxoriylar, farg‘oniyalar, xorazmiylar, beruniylar, ibn sinolar, ulug‘beklarni qanchalik izzat-ikrom qilgan bo‘lsa, yigirma birinchi asrda biz xalqimiz, millatimizga nisbatan ana shunday ehtiromni qaytadan qo‘lga kiritishimiz kerak. O‘sha davrda ulug‘ ajdodlarimiz asos solgan va olamga dong taratgan ilmiy maktablarni zamonaviy shaklda qaytadan tiklashimiz lozim” [25, – B.99]. Biroq, o‘tmish mutafakkirlarimiz erishgan yutuqlar bilangina kifoyalani, ular qoldirgan ulkan ma‘naviy meros bilangina g‘ururlanib yuraverishimiz kamlik qiladi. “Faqat o‘tmishga, ajdodlar merosiga mahliyo bo‘lib yurishning o‘zi bilan uzoqqa borib bo‘lmaydi”. “Biz o‘z tariximizni xolisona va haqqoniy baholab, ma‘naviy merosimizni boyitish va rivojlantirishga o‘z hissamizni qo‘shishimiz, shu asosda bugungi jahon ilmu fani va madaniyatining yuksak cho‘qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir bo‘lishimiz darkor” [26]. Buning uchun bizda etarli asos, buyuk o‘tmishimiz, ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ilmiy merosimiz bor. O‘tmish va kelajak haqida, shuningdek, boshqa fanlar yutuqlari haqida to‘g‘ri bilim va tasavvurga ega bo‘lsak, fanlararo integratsiyadan psixologik ta‘limotlarni rivojlantirish uchun oqilona xulosalar chiqarib, uni keng ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etsak, bu ayni vaqtda fan taraqqiyotiga qo‘shilgan munosib hissa bo‘ladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlardan, jumladan “Psixologiya” fanlari sohalarini bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tishda milliy qadriyatlarimizga oid ma‘lumotlar, milliy mafkura chig‘irig‘idan o‘tkazilib, psixologik tahlil qilinib, sharhlanib, o‘quvchilar e‘tiboriga xavola etilsa, bu o‘quvchilarda, talabalarida faqat shu fan ta‘limotlarini bilib, o‘zlashtirishlarinigina emas, balki shu asnodan o‘z o‘tmishi, yurti, fanidan fahrlanish, milliy g‘urur hissini shakllanishida kuchli omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa, bo‘lajak mutaxassislar tomonidan fanni o‘rganish va uni rivojlantirish uchun kuchli

ichki, shaxsiy ahamiyatli motiv bo‘lib xizmat qiladi. Bunday motiv, yoshlarimizda kutilayotgan ma’naviyatni shakllanishida hal qiluvchi kuch hisoblanadi.

“Bizning qonimizda ming yillik Sharq tafakkurining bedor ruhi gupirib turibdi” [27, – B.89]. Shunday ekan, bugungi kunlarda yaratilayotgan darsliklarimizda ko‘hna Sharq mutafakkirlaridan Burhoniddin Marg‘inoniy, Nizomulmulk, Al-Xorazmiy, Abu Nosir Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Husayin Voiz Koshifiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabilarning ming yillar davomida dunyo ilmiga, jumladan psixologiyaga ta’limotlariga qo‘shgan hissalarini cheksiz ekanligini ochib berishga e’tiborni kuchaytirish, hatto ko‘proq urg‘u berish kerak.

Masalan, psixologiyada psixika haqidagi tushunchalarni berishda Fales, Aristotel, Platonlarning ruh-jon haqidagi ta’limotlarini aytib o‘tish bilan birga, Ibn Sinoning ruh haqidagi, “qalb ruhi” haqidagi ta’limotlari, I.Sechenovning “bosh miya reflekslari” haqidagi ta’limotlariga Forobiyning “Fozil odamlar shahri”dagi “Tana jonlari” haqidagi qarashlarini, “Temir tuzuklari”dan ijtimoiy psixologiya ta’limotlarini yoritishda foydalanish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Bu kabi ma’lumotlar bizning yoshlarimizga, mentalitetimizga yaqinroq. Shuning uchun ham, ular bu kabi ma’lumotlarni “o‘ziniki” deb qabul qiladilar. Bunday ma’lumotlar yoshlarimizda milliy mafkura, vatanparvarlik ruhini shakllantirishda kuchli g‘oyaviy omil vazifasini bajaradi.

“Milliy tuyg‘u inson uchun tabiiydir. O‘z xalqiga, uning an‘analari-ga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o‘z xalqini millatlarning butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiladigan haqiqiy insonni, o‘z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas” [28, – B.9]. **“Moziy haqidagi haqiqat ham avlodlarni tarbiyalaydi”** [29, – B.87].

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori /Barkamol avlod orzusi. To‘ldirilgan 2-nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”. – 2000. – B. 9-30.
2. Платонов К.К. Занимательная психология. – М.,1986. – 224 с.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori /Barkamol avlod orzusi. To‘ldirilgan 2-nashr. –Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”, 2000. – B. 9-30.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q (Tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan suhbat) /Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. – T.7. – Toshkent, 1999. – B.132-154.
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q (Tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan suhbat) /Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. – T.7. – Toshkent, 1999. – B.132-154.
6. Соғуний Алихонтўра. Туркистон қайғуси. Биринчи китоб.-Тошкент: "Шарқ", 2003. – 240 б.
7. Ҳомидий Ҳ. “Авесто”дан “Шохнома”га /Ҳомиджон Ҳомидий; масъул муҳаррир Н.Комилов. – Т.: Шарқ, 2007. – 320 б.
8. Еникеев М.И. Общая, социальная, юридическая психология//Учебное пособие для ВУЗов. – М., 2002. – 418 с.
9. Navoiy Alisher. Hikmatlar/Nashrga tayyorlovchilar: S.Mutallibov, E.Ochilov. – Т.: “Sharq”, 2006. – 224 b.
10. Navoiy Alisher. Hikmatlar/Nashrga tayyorlovchilar: S.Mutallibov, E.Ochilov. – Т.: “Sharq”, 2006. – 224 b.
11. Karimov I.A. Ilm-fan imkoniyatlaridan to‘laroq foydalanaylik /O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Т., 2012. – B. 72-95.
12. Ҳомидий Ҳ. “Авесто”дан “Шохнома”га. /Ҳомиджон Ҳомидий; масъул муҳаррир Н.Комилов. –Т.:Шарқ, 2007. – 320 б.
13. Nizomulmulk. Siyosatnoma, yoki siyar ul-muluk (Fors tilidan tarj., so‘zboshi va izohlar: Shodmon Vohid Xusaynzoda, A.Erkinov). (Huquqiy merosimiz xazinasidan). – Т.: Adolat, 1997. – 256 b.

14. Ҳомидий Ҳ. “Авесто”дан “Шохнома”га. /Ҳомиджон Ҳомидий; масъул муҳаррир Н.Комилов. – Т.:Шарк, 2007. – 320 б.
15. Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai Sultoniyy: yoxud javonmardlik tariqati. – Toshkent, – 1994. – 228 b.
16. Кто есть кто: Новейший справочник школьников. – М.: СЛОВО, Эксмо, 2007. – 1120 с.
17. Темур тузуклари /Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Караматов тарж.; Б.Аҳмедов таҳр. остида. – Тошкент, 2011. – 184 б.
18. Темур тузуклари /Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Караматов тарж.; Б.Аҳмедов таҳр. остида. – Тошкент, 2011. – 184 б.
19. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. /Zahiriddin Muhammad Bobur; Tahrir hay’ati A.Qayumov, N.Sultonov, B.Alimov va boshq.; Xalqaro Bobur fondi.-Т.: “O’qituvchi” NMIU,2008. – 288 b.
20. Тохир Малик. Нафс кишанлари. Фалсафий ўйлар /Тохир Малик. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2013. – 340 б.
21. Резников Е.Н. Теоретические и методологические проблемы этнической психологии: монография /Е.Н.Резников. –Мн.: Изд. центр. БГУ, 2006. – 440 с.
22. Рўзматова Г. Қалб қатламлари //Тафаккур. № 4. 2009. – Б. 56-59.
23. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Т.:“Ma’naviyat”, 2008. –176 b.
24. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Т.:“Ma’naviyat”, 2008. –176 b.
25. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Т.:“Ma’naviyat”, 2008. –176 b.
26. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Т.:“Ma’naviyat”, 2008. –176 b.
27. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Т.:“Ma’naviyat”, 2008. –176 b.
28. Karimov I. Vatan va xalq mangu qoladi. [Hikmatli so‘zlar va iboralar to‘plami]. –Т., 2010. – 136 b.
29. Karimov I. Vatan va xalq mangu qoladi. [Hikmatli so‘zlar va iboralar to‘plami]. –Т., 2010. – 136 b.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
VOLUME 7, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000